



## JAMIYATDA BADIY GIMNASTIKAGA BO‘LGAN MUNOSABATNI SHAKLLANTIRISH MASALASI

**Tosheva Zamira Normuminovna**

*Navoiy viloyati Zarafshon shahar Sport maktabi  
murabbiy*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada badiiy gimnastika sport turidada talabalarni harakat ko‘nikma va malakalarini shakllantirishga oid ta‘lim texnologisining o‘ziga xos xususiyatlari yoritilgan.*

*Shuningdek, harakat ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish jarayonida tabaqalashtirilgan ta‘lim texnologiyalarining ahamiyati tahlil qilinadi. Maqolada bu yondashuvlarning nazariy asoslari va amaliyotdagi tatbiq etish usullari keltirilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *badiiy gimnastika, harakat ko‘nikma, malaka, tabaqalashtirish, ta‘lim texnologiyasi, jismoniy tarbiya, o‘quv jarayoni.*

Mavzuning dolzarbligi. Yaqin 5-6yil ichida O‘zbekistonda “Badiiy gimnastika” sport turi keskin ravishda rivojlanib kelmoqda. Badiiy gimnastika bugungi kunda biz xavas qilgan rivojlangan mamlakatlar qatorida jadal taraqqiy topib, ommaboplashib borayotgan sport turidn biridir. Hech kimgd sir emaski, Mustaqillikka erishganimizdan kegin barcha soxalar qatoridasportga bo‘lgan e’tibor xam kuvhaydi.

SHu bilan bir qatorda Jaxon arenalarida rivojlangana mamlakat sportchilari bilan raqiblasha oladigan sportchilarimizni ko‘paytirish oldinga qo‘yilgan eng birinchi maqsadlardan biriga aylandi. Ezgu maqsadni amalga oshirish yo‘lida yurtimizdako‘plab jaxon standartlariga javob bera oladigan sport inshootlari, sport komplekslari bunyod etildi.

O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy tarbiya va sport haqida”gi Qonunining 16-moddasida “Maktabgacha yoshdagi bolalar, o‘quvchilar va talabalar salomatligini asrash va mustaxkamlah, ularga jismoniy rivojlanishga extiyojini shakllantirish, maktabgacha tarbiya, o‘rta, oliyta‘lim muassasalarining asosiy vazifasidir”deyilgan.

Kadrlarni tayyorlash milliy dasturida uzluksiz ta‘limni isloh etishning strategic yo‘nalishlaridan biri o‘sib kelayotgan avlod salomatligini muxofaza qilish va mustaxkamlash xisoblanadi.

Jamiyatda sog‘lom hayot tarzini shakllantirish,axoli salomatligini mustaxkamlash, jismonan sog‘lom, ma‘nan boy yosh avlodni tarbiyalash, fuqarolarni jismoniy tarbiya va sport bilan faol shug‘ullanishlariga keng jalb etilishini ta‘minlashga yo‘naltirilgankompleks tadbirlarni amalga oshirish maqsadida xukumatimiz tomonidan ko‘pkina qaror va farmoyishlar qabul qilingan.

SHuningdek O‘zbekiston Respublikasida 2016-yil “Sog‘lom ona va bola yili” deb e‘lon qilingan bo‘lib, buning zamirida jamiyatda sog‘lom turmush tarzini tadbiq etish, balki sport bilan mukammal shug‘ullanib, sport orqali O‘zbekistonni Butun dunyoga tanitish kabi imkoniyatni yaratadi.

Sport millatlarni birlashtiradigan, xalqlarni jiplashtiradigan va ular o‘rtasida o‘zaro do‘stlik, birodarlik rishtalarini bog‘laydigan vositadir. Inson ma‘naviy kamolotida asosiy o‘rinni sport egallaydi. O‘quvchi yoshlar jismoniy tarbiyani yaxshi o‘zlashtirmaganliklari uvhunkatta yoshga borganda uni deyarli butunlay tark etadi. Ana shu xolatni yaxshilash va axolining jismoniy kamolotini rivojlantirish maqsadida turli qonun va nizomlar ishlab chiqilgan.

Sog‘lom avlodni voyaga etkazish hozirgi zamonning dolzarb vazifalaridan biri bo‘lib, bunga juda jiddiy yondashish talab etiladi. Mustaqil O‘zbekistonimizning kelajagi bo‘lgan yoshlarga keng imkoniyatlar, sharoitlar yaratib berishlarga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatish, ma‘naviyatli qilib tarbiyalash, xar tomonlama etuk inson bo‘lishlariga ko‘maklashish uchun sport – tarbiya vositalaridan biri bo‘lib qolaveradi.

Barkamol avlodni tarbiyalashda sportning ahamiyati katta. Jumladan yurtimizda keskin rivojlanayotgan badiiy gimnastika sport turi bo‘yicha yoshlarda sotsiologik tadqiqot metodlaridan foydalanib so‘rab surishtirish ishlari olib borildi. Bu borada quyida so‘zlab o‘tamiz.

Yuqoridagi so‘zlardan kelib chiqib savol tug‘ilishi tabiiy albatta. Yurtimizda sportga bu qadar e‘tibor berilayotgan bir paytda aholi o‘rtasida sportga bo‘lgan qiziqish va fikrlar qanaqa, badiiy gimnastikaning jamiyatdagi ahamiyati qanday? Sport bilan muntazam shug‘ullanishlari uchun oldida qanday muammolar va to‘siqlar bor? Barkamol avlodni sog‘lom va baquvvat qilib tarbiyalashda qaysi jixatlarga e‘tibor berish kerakligini aniqlash maqsadida tadqiqot olib borildi.

Tadqiqotning asosiy maqsadi- Badiiy gimnastika sport turida harakat ko‘nikma va malakalarini shakllantirishning asosiy xususiyatlari va ularning samaradorligini aniqlash.

Tadqiqotning quyidagi vazifalar belgilandi:

1. O‘quvchilarning jismoniy rivojlanish, jismoniy tayyorgarlik darajasini aniqlash va ularni guruhlarga ajratish usullarini ko‘rsatish;
2. Badiiy gimnastika sport turida ko‘nikma va malakalarini shakllantirishga oid mashg‘ulotlarni tahlil etish;
3. Amaliy misollar orqali texnologiyaning samaradorligini ko‘rsatish

Tadqiqot natijalari muhokamasi. Tadqiqot sportchi talabalar orasida olib borildi. Jami tadqiqotda 60 ta talaba ishtirok etdilar.

Tadqiqot anketa ko‘rinishida bo‘lib, quyidagivha savollar berilgan edi:

Siz badiiy gimnastika sport turi bilan shug‘ullanasizmi? Agar shug‘ullansansiz nima maqsadda shug‘ullanasiz? Bugungi kunda badiiy gimnastikaning jamiyatdagi o‘rni qanday deb o‘ylaysiz? O‘zbekistonda badiiy gimnastikaning keljagi bormi? Trener sizningvha chet ellik bo‘lishi shartmi? Kelajakda farzandingizni badiiyt gimnastika bilan shug‘ullantirasizmi? va xokazolar.

Barha savollar badiiy gimnastika bilan bog‘liq bo‘lib, talabalarning dunyo qarashidan kelib chiqqan xolda turli javob variantlari berildi. Tadqiqot savollari turli OTMlarda olib borilganligi sababli ularning javoblari turlicha bo‘lib, ulr solishtirilganda, quyidagicha farqlar yaqqol ko‘rindi.



Badiiy gimnastika bilan shug‘ullansangiz nima maqsadda shug‘ullanasiz? degan savolga maxsuslashtirilmagan institute talabalarining 72% sog‘lom qomatga ega bo‘lish uchun shug‘ullanishlarini ta’kitlashishdi. O‘zDJTI respondentlaridan 80% sportda yaqqol natijaga ega bo‘lish, sport ustasi bo‘lish, turli musobaqalarda ishtirok etish va natija ko‘rsatish maqsadida shug‘ullanishlari aniq bo‘ldi.

BA diiy gimnastikaning kelajagi bormi, yo‘qmi degan savolga O‘zDJTI talabalari 95%, Maxsuslashtirilmagan OTM 70% kelajagi bor deb topishdi.

Murabbiylik kasbi osonmi, qiyinmi? degan savolga maxsuslashtirilmagan OTM 30%, O‘zDJTI talabalari 70% qiyinligini takidlashishdi. Ammo ayni vaqtda talabchang va mas’uliyatli murabbiylar zarurligini ta’kidlashishdi. Barcha OTM talabalari 80% keljakda farzandlarini badiiy gimnastika sport turi bilan shug‘ullantirishlari aniqlandi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, jamiyatning barcha soxalarida yanaqa yuqori va yaxshiroq natijalarga erishish uchun tadqiqot natijalaridan foydalanib ish yuritilishi ijobiy samara berishi shak-shubxasizdir.

Maxsuslashtirilgan va maxsuslashtirilmagan OTMlari talabalari fikrlari solishtirilganda farqlar tafovvut qilinib yangi fikr va muloxazalar vujudga keladi. Sportga bo‘lgan munosabatni xamma yoshlarda qisman ijobiy qarashlarni shakllantirishda ko‘plab ishlar olib borilishi kerakligi ayon bo‘ladi.

Tadqiqot faqatgina talabalar orasida o‘tkazildi. Keginchalik axoling boshqa qatlamlarida xam olib boorish rejalatirilmogda. YOshlar axolining ko‘p qismini tashkil qiladi. Bundan tashqati yoshlarning ongi sog‘lom fikrlashga moyil bo‘ladi, shu sababli tadqiqotni yoshlarda olib boorish yaxshi samaraga erishishga zamin yaratadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz T.: O‘zbekiston, 2017 y.
2. Karimov I.A. Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori – T: O'zbekiston – 1991 yil,
3. Achilov M.A., Akramov J.A., Dovulova M.S. Bollarda qomatning shakllanishi T., 2006
4. Usmonxo‘jaev T.S., Aliev M.B., Sagdiev H.H., Turdiev F.K., Akramov J.A., Usmonxo‘jaev S.T. Bolalar va o‘smirlar sporti mashg‘ulotlari nazariyasi va uslubiylari T., 2006